

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI**

REFERAT

**FARMATSEVTIK LOGISTIKA TIZIMI FARMATSEVTIKA BOZORIDA ULGURJI SAVDO
FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISH**

Bajardi: Farmatsiya fakulteti
2 kurs 9/1 guruh talabasi
Mirxakimov Nodir

Tekshirdi: N.Chinibekova

Toshkent-2015

Reja

1. Farmatsevtik logistika haqida tishuncha.
2. Logistik tizim, logistika infrastrukturasini , logistik sarf-xarajatlar , logistik kanal , logistik zanjir terminlari.
3. Tovar harakatining kanallari.
4. Ulgurji vositachilar.
5. Dorixona omborining asosiy vazifalari.
6. Omborxonaga tovarlarni qabul qilish tartiblari.
7. Dorixona omborida tovarlarni saqlash tartibi.
8. Dorixona omboridan moddiy boyliklarni berish qoidalari
9. Omborxona bo'limlari haqida ma'lumot.
10. Omborxonaga kelayotgan tovarlarni sifatini tekshirish.

Xomashyoni olishdan boshlab, toki tayyor mahsulot ishlab chiqarguncha bo'lgan yo'lining bir qismi texnik-ishlab chiqarish maqsadidagi **mahsulotning harakati** deb aytiladi.

Yo'lining ikkinchi qismi tayyor mahsulotning ishlab chiqaruv-chidan iste'molchiga yoki foydalanuvchiga yetib borish harakati **tovar harakati** deb ataladi.

Bu ikki oqimni birlashtirilganiga uncha ko'p bo'lgani yo'q va uni orasidagi munosabat **moddiy oqim** deb nomlandi. Bu esa o'z navbatida mahsulot harakati jarayonida paydo bo'lgan yangi obyekt **logistika** (grekchadan *logistics* — hisoblash, fikrlash san'ati) fanini o'rganish predmetiga aylandi.

Farmatsevtik logistika — farmatsevtik va boshqa tovarlar hamda ular bilan bog'liq bo'lgan farmatsevtik yordamda iste'molchilarni qoniqtira oladigan axborotli, moliyaviy va xizmat qilish oqimlarini o'z ichiga oladigan boshqarish hamda qulaylashtirishni ta'minlay-digan fan va amaliy faoliyatdir.

Logistika moddiy resurslarni taqsimlash, ishlab chiqarishni texnik, texnologik, tashkiliy ta'minlash to'g'risidagi fan sifatida, ilmiy-texnik taraqqiyot ta'siri natijasida mahsulotlar aylanuvini jarayonini takomillashtirib borishga bo'lgan doimiy talab ta'siri ostida paydo bo'ldi.

Logistika quyidagilarga asoslanadi:

texnikaga (materiallar oqimi);

axborotga (axborotlar oqimi);

ishlab chiqarishga (mos holdagi boshqaruv modellari bilan).

— logistik tizim faoliyati logistik qoidalar asosida amalga oshiriladi. Logistik qoidalar deganda logistik tizimda eng maqbul yoʻnalishlarni aniqlash uchun yuklar va usullar yigʻindisi tushuniladi;

— **logistik tizim (LT) deganda** elementlar va ular oʻrtasida yuk (material) oqimini, u paydo boʻlgan nuqtadan isteʼmol qilinadigan nuqtagacha boshqarish maqsadida paydo boʻladigan oʻzaro aloqalar hamda bu jarayonlar uchun zarur boʻlgan axborot oqimlari yigʻindisi tushuniladi.

Logistik tizimning elementlari quyidagilardir: ishlab chiqaruvchi, qayta ishlovchi korxonalar va boshqa tarmoqlarning korxonalari, tijorat-vositachilik korxonalari, transport va ombor quvvatlari, yetkazib beruvchilar, buyurtmachilar, axborot tizimlari, axborotni yigʻish, qayta ishlash va uzatish moslamalari, boshqaruv organlari (menejment).

Logistika infrastrukturasini deganda bir korxonadan boshqa korxonaga moddiy va axborot oqimlarini ishonchli hamda bir maromda yetkazib turilishini taʼminlaydigan transport va boshqa zaruriy elementlarning yigʻindisi tushuniladi.

Quyidagilarga qilingan xarajatlar **logistik sarf-xarajalar** hisoblanadi:

— tashishga, ortishga, tushirishga, qayta ortishga, yuklarni manipulyasiya qilishga;

— transport — ombor ishlarining hamma turlari boʻyicha taxlash;

— axborot xizmatini koʻrsatish, yaʼni axborot oqimlarini tashkil etish;

— aylanma mablagʻlarni tutib turishga va omborlarda yuklarni saqlab turish natijasida qilinayotgan tavakkalchilik;

— logistik boshqarishga.

Logistik kanal — yetkazib beruvchi, isteʼmolchi, tashuvchi, vositachi, sugʻurtachilardan iborat qisman tartibga solingan koʻplik. Isteʼmolchi yoki yetkazib beruvchi bozor iqtisodiyoti sharoitida tashuvchilarni, sugʻurtachilarni va hokazolarni turli xil usullar bilan (reytingini hisoblash, operatsiyalarni tadqiq qilish usullarini qoʻllash va hokazo) tanlash imkoniyatiga egadir. Tanlash amalga oshirilgandan soʻng logistik kanal, logistik zanjirga aylanadi.

Logistik zanjir — bu chiziqli tartibga solingan ko‘plab jismoniy va yuridik shaxs (ishlab chiqaruvchilar, distribyutorlar, umumiy foydalaniladigan ombor)larning ko‘pligi bo‘lib, ular tashqi moddiy oqimni bir LT dan boshqa LT ga yetkazib berish bo‘yicha yoki yakuniy iste‘molchiga yetkazib berish bo‘yicha (noishlab chiqarish iste‘moli, shaxsiy iste‘mol) operatsiyalarni amalga oshiradi. Umumiy holda logistik zanjir ishlab chiqaruvchi, iste‘molchi, vositachi va tashuvchilarni birlashtiradi.

Moddiy oqimning qaysi qismida harakati o‘rganili-shiga qarab, logistikasi **sotib olish** (tashkilotni moddiy resurslar bilan ta‘minlash), **ishlab chiqarish logistika** (mahsulot ishlab chiqaradigan yoki saqlash va boshqalar bo‘yicha xizmat ko‘rsatadigan korxonalarning ichidagi moddiy oqimlar bilan boshqarish), **taqsimlovchi logistika** (tayyor tovarni iste‘molchiga yetkazib berish) turlariga bo‘linadi.

Taqsimlovchi logistikada tovar harakatining turli kanallar orqali moddiy oqim ishlab chiqaruvchidan so‘nggi iste‘molchiga yetib keladi. Ta‘minotchining ishonchi (mahsulotni aniq muddatga, qat‘iy grafik asosida yetkazish va boshqalar), investitsiya va kreditlash imkoniyatlari, muomala xarajatlarining kattaligi, mavjud bo‘lgan assortimentga talab, narxi va boshqalar kabi omillar harakati moddiy oqim (farmatsevtik va boshqa tovarlar)ning shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatadi.

Tovar harakatining 2 ta asosiy turi mavjud:

To‘g‘ri.

Egri.

Agar mahsulot ishlab chiqaruvchidan bevosita iste‘molchiga yetib borsa, bu kanalning to‘g‘ri turi hisoblanadi. Bunda faqat 2 ta qatnashuvchi ishtirok etadi.

To‘g‘ri kanallarning yana bir nomi bu — nol darajali kanal.

Egri (ko‘p darajali) kanal — mahsulotni ishlab chiqaruvchidan iste‘molchiga vositachilar tizimi orqali sotilishi. Agar vositachi 1 ta bo‘lsa — bu birinchi darajali kanal.

Agar vositachi 2 ta bo‘lsa — ikkinchi darajali kanal.

Tovar harakati kanallari vertikal va gorizontal bo‘lishi mumkin:

— vertikal tovar harakati kanallari yagona tizim sifatida ish ko‘rsatadi, ishlab chiqaruvchi, ulgurji va chakana vositachilar, iste‘molchilarni o‘z ichiga oladi. Ular umumiy maqsadlarni ko‘zlaydi va birlashgan nazoratda xizmat ko‘rsatadi;

— gorizontal tovar harakati kanallari, bir qancha firmalar birlashmasi bo‘lib, aniq bozorni birgalikda egallash uchun mo‘ljallangan. Bunday sotish tizimdan dorixona tizimida ham foydalansa bo‘ladi. Masalan: keng ko‘lamda reklama kompaniyasini o‘tkazish va o‘z tovarlari savdosini ko‘paytirish maqsadida aniq hudud dorixonalarini birlashtirish.

Tovarlarni ishlab chiqaruvchidan iste’molchiga yetkazib berishda tadbirkorlik faoliyati maqsadida tovarlar yoki xizmatlarni sotish va olib sotish maqsadida **ulgurji vositachi** (tashkilotlar va alohida shaxslar)ning o‘rni katta.

Ulgurji vositachilarning asosiy vazifasi — ishlab chiqaruvchilar va chakana sotuvchilar (dorixonalar bilan) o‘rtasidagi uzilishni yo‘qotib, muntazam aloqalarni va markazlashtirishni ta’minlashdir.

Farmatsevtik tovarlar harakati tizimining zarur sharti — ulgurji vositachi (dorixona ombori) aloqalari orqali iste’molchilarga yetkazish hisoblanadi.

Ulgurji vositachilar funksiyalari

Farmatsevtika bozorda ulgurji vositachilar quyidagi funktsiya-larni bajaradi:

— Marketing — bozorni kompleks tahlili, tovar siyosati va narx siyosati va boshqalarni amalga oshirish.

— Axborotli — kerakli axborot bilan ta’minotchilarni va chakana tashkilotlarni ta’minlash.

— Tovarlarni qabul qilish, saqlash va tovar zaxiralarini boshqarish.

— Tovarni tashish.

— O‘z xaridorlarini kreditlash — tovarlarni iste’molchilarga kreditga berish.

— Rejalashtirilmagan xarajatlar xavf-xatarini qayta taqsimlash.

— Tovarga egalik huquqini olgan holda ulgurji vositachilar, tovarlarning buzilishi, o‘g‘irlanishi, unga qo‘yilgan narxlarning pasayishi bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lum xavf-xatardan ishlab chiqarishni xalos etadilar.

Ulgurji vositachilar tasnifi

Ulgurji vositachilar bog‘liq bo‘lgan va bog‘liq bo‘lmagan vositachilarga bo‘linadi:

Bog‘liq bo‘lmagan vositachilar ta’minotchilardan tovarni sotib oladilar, tovar sotish huquqini olgandan so‘ng ulgurji vositachilarga xos bo‘lgan hamma funksiyalarni bajaradilar. Ularga distribyuterlar kiradi — bu firmalar yirik ishlab

chiqaruvchilardan to'liq ulgurji sotib olish asosida savdoni bajaradi. Distribyuterlar shaxsiy omborxonalarga ega, ular, odatda, tovar ishlab chiqaruvchilari bilan uzoq muddatli aloqalar o'rnatadilar.

Bog'liq bo'lgan vositachilar — tovarga egalik huquqini olmagan va bevosita savdoda ishtirok etmaydigan firmalar yoki ayrim tadbirkorlar (agent va brokerlar). Ular sotish yoki oldi-sotti jarayonlariga ko'maklashadi, ya'ni sotuvchilar va xaridorlarni birlashtiradi hamda axborot va marketingli funksiyalarni bajaradilar.

Dorixona omborining zimmasiga quyidagi vazifalar yuklanadi;

1. Tibbiyot tovarlarini etkazib berishning alohida shartlari va tuzilgan shartnomalarga muvofiq ta'minotchilardan miqdori va sifati jihatidan qabul qilib olish.

2. Dori vositalarining fizikaviy kimyoviy xossalarini e'tiborga olgan holda ularni saqlash uchun davlat farmakopeyasining talablari, yuqori tashkilotlar tasdiqlangan buyruq va yo'riqnomalardagi qoidalarga binoan tegishli shart-sharoitlar yaratish.

3. Bo'limlardagi moddiy boyliklarni to'liq saqlanishini ta'minlash

4. DPM va boshqa muassasalarning buyurtmalarini bajarish.

5. Dorixona tarmoqlariga mollarni etkazib berish.

Dorixona omborining faoliyatida tovarlarni qabul qilish bo'limining ahamiyati katta.

Bu bo'lim ta'minotchilar tomonidan keltirilgan barcha tibbiyot tovarlarini qabul qilish bilan shug'ullanadi. mol 2xil joydan olinadi.

1. xorijdan

2. maxalliy

Xorijdan kelgan dori vositalari bojxonada rasmiylashtiriladi. kelgan partiya dori vositalariga deklaratsiya qilinadi. miqdori "tashekspertiza"da tekshiriladi. xulosani "O'zbekiston Dori ta'minotiga" beradi. Kirish hujjatlari rasmiylashtiriladi.

Bojxonadan o'tkazilganda dori sifatini tekshiruvchi "Dori vositalari va tibbiy texnika mahsulotlari sifatini nazorat qilish bosh boshqarmasi" tomonidan seriya bo'yicha "muvofiqlik sertifikatini" beradi.

U esa bojxona hujjatlari tarkibiga qo'shilib "O'zbekiston Respublikasi Dori ta'minoti" ga beriladi.

Qabul qilish jarayoni.

“O‘zbekiston Respublikasi dori ta‘minoti” xulosasi

soni sanaladi (ekspertiza xulosasi asos bo‘ladi)

muvofiqlik sertifikat(sifati)

saqlanish gruppalariga qarab bo‘limlarga topshiriladi.

muxrlangan daftar tutiladi.

Unda sertifikat nomeri, iste‘mol muddati, sertifikat berilgan sana ko‘rsatiladi.

Qabul qilish dalolatnomasi (priyomno‘y akt)- qabul qilish xay‘atida qabul qilinadi

“O‘zbekiston Respublikasi dori ta‘minot” direktori buyrug‘i bilan a‘zolar saylanadi.

Qabul qilish bo‘limida 5ta mutaxassis ishlaydi, 4tasi oliy ma‘lumotli, 1ta ta‘minotchi ekspeditor.

Maxalliy ta‘minotchilardan olinadigan dori vositalarini o‘zlari gohida esa”o‘zbekiston respublikasi dori ta‘minot” ning o‘zi olib keladi.

Qabul qilish bo‘limidan tashqari “O‘zbekiston Respublikasi Dori ta‘minoti”da (omborxonada)quyidagi bo‘limlar mavjud;

1. Buxgalteriya bo‘limi.
2. Ta‘minot bo‘limi (ekspeditsiya bo‘limi).
3. Dori saqlash bo‘limi
 - a). zaxarli, narkotik vositalari, prekursorlar
 - b). oddiy dori vositalari
 - v). rezina va shisha buyumlar.
4. Avto garaj
5. ASU

Qabul qilish dalolatnomasida dori vositasining tartib nomeri, nomlanishi, kodi, seriya-partiyasi, sanasi, yaroqlilik muddati, sertifikat sanasi, tahlil natijalari, o‘lchov birligi, faktik miqdori, hujjat bo‘yicha miqdori, asosiy narxi, omborxona qo‘yayotgan narx, kamchiliklari, ortiqchalari, singan va yaroqsizligi ko‘rsatiladi. Dalolatnomadagi birinchi raqam uning nomeri, ikkinchi raqam bo‘lim nomerini, uchinchi raqam esa sanani bildiradi. Qabul qilish dalolatnomasiga direktor, komissiya raisi va komissiya a‘zolari imzo chekadilar. Qabul qilish dalolatnomasining birlamchi hujjatlari ham bo‘ladi.

Ushbu hujjatda quyidagilar haqida ma'lumot bo'ladi. Tovarning tartib nomeri, shifri, nomlanishi, seriyasi, yuborilgan miqdori va kelgan miqdori kamchiliklari, yaroqsiz bo'lib kelgani hisobdan chiqariladi.

Bundan tashqari ortiqchalari yoki etishmovchiliklari bo'lsa arz qilinadi

ulgurji narx bu xujjatda rasmiylashtiriladi. ushbu xujjat avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi (ASU) bo'limiga topshiriladi. ular narx qo'yadilar (kompyuterga narx qo'yib kirgizadilar). Tibbiyot mollari tegishli bo'limlarda, ularning fizik-kimyoviy xossalarga binoan saqlanadi. Ularning nomerlari, seriyasi, yaroqlik muddatlarini hisobga olgan holda sukchaklarda tartib bilan joylashtiriladi. bo'limlardagi tovarlarning alohida nomlari bo'yicha hisobi miqdor va summada "Tovarlarni omborxona hisob varaqasi"da olib boriladi. Dorixona omboridan dorixonalariga dori-darmonlar va boshqa tibbiyot tovarlarini berish buyurtma-talabnoma asosida amalga oshiriladi. Talabnomalarga binoan omborning tegishli bo'limlarida tovarlar ajratib, jamlanadi. Bu xujjatda tovarlarning nomlari, chakana va ulgurji narxi summasi aniq ko'rsatiladi. Tarkibida zaharli, narkotik moddalari va etil spirti bo'lgan dori-darmonlar uchun alohida schyotlar tuziladi. Dorixona omboridagi tovarlar harakati hisobi mexanizatsiyalashtirilgan tartibda olib borilib, jo'natishga tayyorlangan tovarlar ma'lum shakldagi buyurtma yoki talabnomaga muvofiq ajratilgan bo'lsa, 5 nusxa "Tovar transport yuk xati" to'ldiriladi. birinchi va ikkinchi nusxalari Tovar olingan bo'limda, 2 tasi o'zida (dpmning buxgalteriya bo'limida), 1 tasi ekspeditsiya bo'limida qoladi. ushbu xujjatning ham 3 ta nomeri bo'ladi. Birinchi nomeri tartib sonini, ikkinchisi bo'limni, uchinchisi sanani bildiradi. Ushbu xujjatda tovarlarning nomlanishi, nomeri, o'lchov birligi, miqdori, chakana narxi, summasi ko'rsatiladi. Bu xujjatga bo'lim boshlig'i (ekspeditsiya) shu bo'limning buxgalteriya va nazoratchisi imzo chekadi.

Moddiy boyliklarni omborxonadan berish rejali ravishda yuqori tashkilotning ko'rsatmasi bo'yicha beriladi. Buning uchun dorixona omborida buyurtmalarni berish bo'yicha tasdiqlangan grafik bo'ladi. Operativ bo'limlar omborxonaning qabul bo'limida tovarlarni olayotganlarida har bir tovarni shaxsan tekshirib olishlari, laboratoriya analizi natijalarini keltirilgan tovarlarni xujjat asosida to'g'riligini har tomonlama tekshirib olishlari shart (ya'ni, tovarlarni to'g'riligini sanab, hisoblab olish, tortib yoki o'lchab olish zarur).

Bo'limlardagi hamma tovarlar va dori-darmonlar o'zlarining fizik va kimyoviy xossalariga qarab saqlanishi shart. Bo'lim boshlig'i hamma tovarlar uchun javobgar shaxs hisoblanadi. Shuning uchun bo'limdagi mollarni sistemali ravishda taftish o'tkazib turiladi.

Bo'limdagi hamma tovarlar stelajlarga va tagiga taglik qo'yilgan erlarda nomlari, yu seriyalari va saqlash muddatlari aniq yozib qo'yilgan holda saqlanadi. Har bir nomdagi dori yoniga stelaj kartochkasi yozilgan bo'lib, bu dorilarni o'z vaqtida ya'ni, saqlanish muddatini o'tkazmagan holda realizatsiya qilishga yaxshi yordam beradi.

Saqlanish muddati 2 yildan kam bo'lgan dorilarga bo'limni o'zida alohida jurnal yuritib, dorining seriyasi, aniq saqlash muddati, olingan muddati, tovarni miqdori va uning saqlash muddatini tugashiga 3 oy qolganda va har 1 oy uchun uning umumiy sarfi hisobga olinadi. Mabodo uning saqlash muddati qayta tekshirilib uzaytirilgan bo'lsa, u ham qayd qilinadi. Narkotik moddalar qanday dori formasi bo'lishidan qat'iy nazar alohida xonada, xonaning oynalari reshlyotkali, eshiklar temir bilan qoplangan xonadagi temir sandiqlarda (seyflarda) saqlanadi.

Xona shamollatgich (ventilyatsiya) va havoni so'ruvchi shkaf, saqlovchi (svetozvukovaya signalizatsiya, blokirovka), ya'ni eshik va oynalarga qo'yiladigan signalizatsiyalar bilan jihozlanadilar.

Bajarilgan ishlariga qarab, omborxonalarda har xil bo'limlar tashkil qilinadi. Ularda dori-darmonlarning saqlash, qadoqlash, ajratish, dorixona va davolash muassasalarini buyurtmalarini bajaradilar:

Hamma bo'limlar 2 ga bo'linadi:

1. dori-darmonlar bo'limi;
2. dori-darmonlar bo'lmagan bo'limi (ya'ni boshqa bo'limlar);

1-chi bo'limga quyidagilar kiradi;

Quruq dorilar bo'limi, suyuq dorilar bo'limi, zaharli dorilar bo'limi, antibiotiklar bo'limi, qabul qilib olish bo'limi.

2-chi bo'limga quyidagilar kiradi.

Dezinfektsiyalovchi moddalar bo'limi, bog'lov materiallar bo'limi, sanitariya gigiena buyumlari bo'limi, ko'zoynaklar bo'limi va tibbiy asbob-uskunalar bo'limi,

tara bo'limi. Hamma bo'limlarni bo'lim boshliqlari boshqaradilar va ular quyidagi vazifalarni bajaradilar:

- tovarlarni sifatli va to'g'ri qabul qilish;
- dorixona va davolash-profilaktika muassasalariga o'z vaqtida va to'g'ri tovar berish;
- dori-darmonlarga yillik buyurtma (zayavka-zakaz) loyihasini tuzish va baza mudiriga o'z vaqtida topshirish;
- bo'limlarda dori-darmonni qat'iy ravishda davlat farmakopeyasi talablari asosida saqlash;
- bo'limlarda sanitariya qoidalariga amal qilish;
- bo'limlarda olib borilayotgan, ya'ni kartotekadagi hisob-kitob bilan uyg'unligini nazorat qilib borish;
- bo'lim xodimlarini ish yuritish malakasini oshirib borish va xokazo.

Tuzilgan shartnomalarga asosan tibbiyot sanoat korxonalarini tomonidan (ya'ni farmazavodlar, fabrikalar va xokazolar) ajratilgan fondlar (ya'ni dori-darmonlar) dorixona omboriga kelib tushadi. Bu dori-darmonlar temir yo'llar, suv yo'li va havo yo'llari orqali kelib, omborxona mashinalari yordamida tushirib olinadi. Keltirilgan dorilar omborxonaning qabul qilib olish bo'limiga kelib tushadi. Kelib tushgan tovarlarni qabul qilib, tegishli bo'limlarga jo'natish uchun 3 kishidan kam bo'lmagan tarkibda komissiya tuziladi. Qabul qilib olish bo'limining boshlig'i shu komissiyaning raisi hisoblanadi. Komissiya tarkibiga omborxona mudirlari sifat bo'yicha nazoratchilar, jamoat tashkilotining vakillari qabulga aloqasi bor kishilar kirishi mumkin. Ayrim xollarda komissiya tarkibiga mollar ekspertizasi vakillari va boshqa chetdan dorixona omborxonasiga aloqasi bo'lmagan kishilar kiradi. xokimiyat, jamoa xo'jalik raislari, zavod direktorlari ularning profkom, mestkom raislari kirishi mumkin. Komissiya tarkibi (korxona) omborxona mudirining tavsiyasi asosida "Dori darmon" kompaniyasi yoki birlashmasi tomonidan tasdiqlanadi. Qabul komissiyasining raisi omborxona mudiriga bo'ysinadi va qabul qilib olgan tovarlarni tegishli bo'limlarga jo'natguncha shu tovarlarga moddiy javobgar shaxs hisoblanadi. omborxonaga keltirilgan tovarlar sinchiklab tekshiriladi va ularga to'g'ri sharoit yaratish kerakki, ularni buzilishini oldini olish zarur. Omborxonaga keltirilgan zaharli va narkotik dori vositalari qabul qilish, bo'linish bilan zaharli va narkotik dorilar

bo'limiga jo'natiladi. Hamma bo'limlar shkaflar, stelajlar, tochkalar bilan jihozlanib, unda moddalar saqlanadi.

Dorixona omborlarida tovarlarni ortish va tushirish ishlarini alohida jihozlangan asboblardan va mexanizmlar yordamida bajariladi. Ularga yuk ko'targichlar, transportyorlar, o'zi yurar ortib tushiruvchi mexanizmlar kiradi. Dori vositalari saqlanadigan xonalarda ventilyatsiya va isitish sistemalari bo'lishi lozim. ularni sanitar me'yorga amal qilgan holda ishlatish zarur. Ularni nazorat qilish uchun termometr va psixrometrlar bo'ladi. Tibbiy va sun'iy yoritgichlardan foydalanish ham me'yorga muvofiq bo'lishi darkor. shuning uchun derazalardan tushayotgan yorug'likni shkaflar va stelajlar bilan to'sib qo'yish qat'iyan man etiladi.

Tez alanga oluvchi moddalar isitilmaydigan xonalarda saqlanadi. narkotik dori vositalari alohida xonalardagi seyflarda saqlanadi. derazalarida temir reshpyotkalar bo'lishi lozim. Ventilyatsiya, havo tortuvchi shkaf, svet – ovoz signalizatsiyasi, potoloklar, devorlar mustahkam qurilgan bo'lishi lozim. Dorixona omborining mehnatini ilmiy asosda tashkil qilish lozim.

O'zbekiston Respublikasining 16 dekabr 2002 yilda 547 sonli "Dori vositalari va tibbiy buyumlar ulgurji savdosi qoidalari. asosiy holatlar" - tarmoq standartini tasdiqlash haqidagi buyrug'i chiqdi.

Dilerlar – mustaqil, ya'ni aloqasi bo'lmagan ulgurji (gohida chakana) vositachilar o'z hisobiga va o'z nomidan jarayonlar olib boradi.

Distribyutorlar – mustaqil, ya'ni bog'liq bo'lmagan ulgurji (va chakana) vositachilar o'z hisobiga va ishlab chiqaruvchi nomidan jarayonlar olib boradi. Alohida bo'lgan vositachilar tovarga xususiy huquqi bo'lmaydi, tovar sotib olmaydi. ular boshqalar hisobidan tovar sotadi, o'z nomidan va ishlab chiqaruvchi nomidan sotishi mumkin.

Komissionerlar – mustaqil bo'lmagan (zavisimo'y bo'lgan) ulgurji (va chakana) vositachilar ishlab chiqaruvchi hisobidan va o'z nomidan jarayonlar olib boradi. Agentlar, brokerlar – ishlab chiqaruvchi nomidan operatsiyalar o'tkazadi.

Dorixona omborxonasi – sog'liqni saqlashning mustaqil tashkiloti bo'lib, u dorixonalarni, dpm'larning dori vositalari, tibbiy texnika mahsulotlari, dorixona jihozlari va inventarlari bilan ta'minlaydi.

Logistika – "logistika" - muhokama qilish san'ati

Ulgurji vositachilarning funktsiyalari:

- tovarlarni qabul qilish, saqlash, tovar zahiralarini boshqarish.
- mahsulot realizatsiyasi.
- tovar transportirovkasi.
- o'z klientlarini kreditlash (kreditga tovarlar berish).
- rejalashtirilmagan harakatlarni qayta tarqatish riski. (tavakkalligi)
- informatsiya.
- marketing-bozorni kompleks tekshirish.

Dorixona omborxonasiga tushgan mahsulotlar sifat nazoratidan o'tadilar. Unda preparatning nomi, tashqi ko'rinishi, fizik xossalari, chinligi, tozaligi, yorliqlarning mos kelishi, hajmi, mexanik aralashmalar, o'rtacha og'irligi, kamchiligi, parchalanishi, namligi, zichligi, erish harorati etiborga olinadi. Ta'minlovchi, seriya nomeri, seriyadagi miqdori, yaroqlilik muddati, tahlilga sarflangan soni, bo'limga topshirilgan qoldiq va xulosa farmatsevt imzosi bilan rasmiylashtiriladi.

Adabiyotlar

1. E.R.Toshymuxamedov,X.S.Zaynutdinov va boshqalar "Farmasevtika ishini tashkil qilish" Toshkent-2007 221 bet
2. O'zbekiston Respublikasining 16 dekabr 2002 yilda 547 sonli "Dori vositalari va tibbiy buyumlar ulgurji savdosi qoidalari. Asosiy holatlar" - tarmoq standartini tasdiqlash haqidagi buyrug'i.